



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA GRAMMATIK O'YINLARDAN
FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası o'qituvchisi*

Raximova Nuquljon Yusupovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqichtalabasi

Perdesheva Saule Baxodir qizi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etiladigan grammatik o'yin turlari, ahamiyati, tashkillashtirish tartibi, morfologik va grammatik o'yinlarning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Grammatik, morfologik o'yinlar, boshlang'ich sinf, tushunchalar, matn, g'oya, so'z, tarkib.

Аннотация: В статье рассматриваются виды грамматических игр, организуемых с целью совершенствования родного языка и читательской грамотности учащихся начальных классов, их значение, порядок организации, особенности морфологических и грамматических игр.

Ключевые слова: Грамматика, морфологические игры, начальный класс, понятия, текст, идея, слово, содержание

Annotation: The article discusses the types of grammar games organized for the purpose of improving the native language and reading literacy of elementary school students, their importance, the order of organization, the characteristics of morphological and grammatical games.

Key words: Grammar, morphological games, primary class, concepts, text, idea, word, content

Kirish



Ta'lim jarayoni va uning rivojlanishi uchun so'nggi yillarda juda katta e'tibor qaratilayotganligi barchamizga ma'lum. Davlatimiz rahbari olib borilayotgan islohotlarda ham buni yaqqol namunasini ko'rish mumkin. Har bir millat o'z tili, o'z madaniyatiga chuqur hurmatda bo'lishi, uni kelajak avlodlarga boyitib, meros qilib qoldirishi lozim. O'z ona tilida fikrini erkin bayon qilib, til boyliklaridan unumli foydalangan holda grammatik tushunchalarni ham o'rgangan o'quvchi boshqa tillarni ham tez va oson o'rganadi.

O'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, erkin, ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan, grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish metodikasi, ta'limiy o'yinlar va til hodisalari, til kategoriyalari boshqa jaryonlarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi.

Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksika, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabki materialning o'zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yanada takomillashtirilgan holatidir.

Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq vaqt davom etadigan murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda ma'lumotlarni yetkazib berishda, tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqozo etishini, grammatik bilimning nutqdagi rolini asos qilib oladi.

Ehtimol, ko'plab o'qituvchilar o'zlariga bir necha bor savol berishgan: "Har bir darsni qiziqarli, hayajonli o'tkazish va unda o'quvchilarning bilimga qiziqishi, ijodiy aqliy faolligini rivojlantirishni qanday ta'minlash kerak?"

Mashg'ulotlarni tashkil etishning turli usullari orasida eng katta qiziqarlisi o'yinlar, o'yin vaziyatlari bilan bog'liq hisoblanadi. O'yin o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradigan haqiqiy o'qitish vositasidir. O'rganish jarayonini jozibali va qiziqarli tashkil qilish faoliyatidir.



O'yin kichik yoshdagi o'quvchilarning etakchi faoliyati, ular uchun tushunarli va tabiiy faoliyat bo'lib, o'quv jarayonida qo'llanilishi kerak.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'yin va o'yin texnikasidan foydalanish sinfda do'stona muhitni yaratishga, psixologik to'siqni olib tashlashga, o'z ona tiliga bo'lgan hurmatini oshirishga yordam beradi. O'yinda bolaning qobiliyatlari, uning xarakteri to'liq namoyon bo'ladi. O'yinlarning uslubiy tipologiyasi ularning maqsadi kabi xilma-xildir.

O'yinlarning ikkita asosiy guruhi mavjud: til va nutq. Ulg'ayib kelayotgan bolada nutqni o'stirish, til imkoniyatini kengaytirish maqsadida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida grammatik o'yinlardan foydalanish dolzarb mavzuga aylangan. Negaki, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars o'tish jarayonida didaktik o'yinlar bilangina to'xtab qolishgan. Bolada nutqni o'stirish, o'z ona tilida ravon gapirish, adabiy til me'yorlariga amal qilish, so'zlarni o'z o'rnida qo'llay bilish, qaysi qo'shimcha qanday vaziyatda qo'llanishi, fonemalar bilan bog'liq holatlarga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida turli xil nutq bilan bog'liq bo'lgan noqulay vaziyatlarga duch kelmoqdamiz.

Grammatik o'yinlar o'tkazishda noqulayliklarning oldini olish bilan birga jarayonini qiziqarli va ijodiy tashkillashtirishga yordam beradi. Ular bolalarda ishtiyoq muhitini yaratish va charchoqni yo'qotish imkoniyatini beradi. Grammatik o'yinlar talaffuz, leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish va chet tilini o'zlashtirishga tayyorgarlik, kommunikativgacha bo'lgan bosqichida til hodisalaridan foydalanishni o'rgatish uchun mo'ljallangan.

O'quvchilarga she'rlarni ovoz chiqarib, aniq o'qishga o'rgatish, hikoyalarni rollarga bo'lib o'qish va ba'zi hollarda she'rlardagi qo'shimcha yoki biror so'zni tushurib qoldirish grammatik o'yinning oddiy bir shakli sanaladi. Shu bilan birgalikda o'quvchida topqirlik, chaqqonlik, xayolni jamlash, e'tiborli bo'lish, ijodkorlik, so'zlar va qo'shimchalarni to'g'ri qo'llay bilish, hatto ularning imlosiga-da fikr yuritish kabi jarayonlarni tezlashtiradi.

Grammatik o'yin tartibi:



O'yinlar qanday yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar, ular bolalar tomonidan dunyoni idrok etishni aks ettiradi: qiziqish, hayvonlarga bo'lgan muhabbat, ertak qahramonlari, musobaqalar, topishmoqlar shular jumlasidan.

Grammatik o'yinlar orqali o'quvchilarni bir gapning ma'nosini tushunishga, axborot oqimidagi asosiy muammoni ajratib ko'rsatishga o'rgatish, muloqot jarayonida eshitish reaksiyasini, eshitish xotirasini, nutq reaksiyasini rivojlantirish, o'quvchilarga fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash qobiliyatini o'rgatish kabilar ko'zda tutiladi. Shu bilan birga grammatik o'yinlarda so'zlar ichida keladigan jarangli-jarangsiz, qisqa-cho'ziq unlilarning farqi anglatiladi.

Masalan: "Yo'qolgan harflarni to'ldiring" grammatik o'yinida doskaga so'zlar yozilgan ko'rgazma vositalari ilinadi, ularning har birida so'zlar yozilgan va shu so'zlarda bitta yoki bir nechta harf yetishmaydi.

Namuna: ba...t, sho...r, Samaran..., muh...m, ...ush...abar va hokazo.

“So'zlarni o'rnida qo'lla” o'yinida bir gapni tashkil qiluvchi so'zlar A 4 formatdagi qog'ozga yozib chiqiladi va aralashtirib tarqatiladi. O'quvchi esa so'zlarni o'z o'rniga qo'yishi va gapni to'g'ri tuzishi lozim bo'ladi.

Masalan, bog'chadan olib Singlim qaytdik bilan ukamni. (Singlim bilan ukamni bog'chadan olib qaytdik)

Bordim men sinfdoshim maktabga Javlon bilan (Men maktabga sinfdoshim Javlon bilan bordim) kabi.

“Qo'shimchalarni to'g'ri qo'lla” o'yini. Bu o'yinda so'zlarda qatnashgan qo'shimchalar qoldirilgan holda gap tarkibida keladi. So'ngra, o'quvchilar gapning mazmunini to'ldirish maqsadida kelishik qo'shimchalarini qo'yishadi: bobom biz... kitob do'koni... va hayvonot bog'i... olib bordi. (-ni, -ga, -ga)

Dugonam Malika... uyi... uzoq yo'l... bordik. (-ning, -ga, -dan) kabilardir.

Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yinlar o'quvchi imkoniyatlarini to'la ishga solishi, har bir tovush va harfning eng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo'llaniladigan grammatik o'yinlar ham xilma-xil bo'lib, o'quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash, o'zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi.



1-sinf bolalariga bilim berish o'yin asosiga tashkil qilinsa samarali natijalarga erishish mumkin . Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik, o'qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil etish, sidiq'ali o'qish, husnixat malakalarini shakllatirish va mustahkamlash uchun yozuv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, o'yin shaklida uyushtirish zarur.

O'quvchilar unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo'q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida to'g'ri yozishda qo'l keladi. Shuningdek boshlang'ich sinflarda bo'g'in va uning turlari, ochiq va yopiq bo'g'inlar, tovushlarning bir-biriga ta'siri haqida amaliy bilim olinadi. Bularning barchasini o'zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug'diradi. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o'yinlardan foydalanish qo'l keladi.

“So'z tuzish “ o'yini. O'yin savod o'rgatish davrida o'tkaziladi . Bu o'yinlarni bajarish o'quvchilarga tovushning so'z hosil qilishidagi ahamiyatini to'laroq tushunib olish imkonini beradi. O'quvchilar ushbu o'yinda ishtirok etar ekan, so'zlarning turli-tuman usullar bilan so'z hosil bo'lishini o'rganadilar. Hosil bo'lgan yangi so'zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo'ladi.

So'z tuzish o'yini savod o'rgatishning tarkib – tahrir (analitik – sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma'nolarni bildiradi. So'z tuzish o'yini aynan so'zga xilma-xil tovushlarni, bo'g'inlarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu o'yinni bajarishda so'zga turli xil usullar bilan tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi. “Bo'g'inlardan so'z tuzish” o'yini. Katta taxtaga yozma harflar bilan oila, ona, ana, tola, Lola, Ali so'zlari yozib qo'yiladi. O'quvchilar kesma bo'g'inlar yordamida shu so'zlarni yozadilar. L tovushi so'zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar. L tovushi qatnashmagan so'zlaning aralashtirilib berilishi o'quvchilar diqqatini orttiradi.



Bunday o'yinlarni boshqa harflarni o'rganish davomida ham qo'llash mumkin. Birinchi bo'lib yozib bo'lgan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

Morfologik o'yinlar . Morfologik materiallar boshlang'ich sinflarda ancha keng o'rganiladi. To'rt yil o'qish davomida o'quvchilar so'z va uning ma'nolari, so'z shakli, so'zning morfologik tarkibi yuzasidan bir muncha bilimga ega bo'ladi. So'z turkumlari, uning asosiy, qo'shimcha va o'ziga xos belgisi ustida nazariy hamda ko'proq amaliy bilimlar oladi. Boshlang'ich sinf ona tili o'quv dasturlari o'quvchilarning xususiyatlarini, ularning yildan-yilga aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan o'sib borishini hisobga olgan holda, bosqichli ketma-ketlik tamoyili asosida tuzilgan. Shunga asosan har bir mavzuning o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirib olinadigan qismi quyi sinflarda murakkabroq qismi yuqori sinflarda o'rganiladi.

Xulosa

O'quvchiga beriladigan bilim bolalarning ilgarigi sinflarda olgan bilimlari asosiga quriladi. Bu o'quvchining dastlab olgan bilimiga tayanib xilma-xil grammatik o'yinlarni uyushtirish imkonini beradi. Chunki mavzu yuzasidan ma'lum darajada bilim va ko'nikmalar bo'lgandagina uyushtiriladigan grammatik o'yinda o'quvchining faol qatnashishiga imkon yaratiladi.

Morfologiyada o'quvchilar grammatik hodisaning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganadilar. Ularni taqqoslash orqali turli grammatik o'yinlar uyushtirish mumkin. Bunday mashg'ulotni morfologiyani o'rganishga bag'ishlangan har bir darsda ham qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. R. Safarova va boshqalar darsligi 1-sinf "Alifbe" —Ma'naviyat nashriyoti –2019 y.
1. G'afforova T. , Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf, 2003. –54 b.
2. G'afforova T. , Nurullaeva Sh. , Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.
3. Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya . Andijon, 2006.



4. Xudayqulova, F., Xikmatova, M., & Panjiyeva, M. (2023). Boshlang'ich sinflarda xalqaro dasturlar asosida dars o'tishning afzalliklari. interpretation and researches, 1(1). извлечено от
<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/627>
5. Xudayqulova Fazilat Boriyevna, Abdaliyeva Barno Ilxom qizi "Xalqaro pirls baholash dasturi" 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-pirls-baholash-dasturi>
6. (Xodjamqulov Umid Negmatovich, & Xudoyqulova Fazilat Bo'riyevna. (2021). "O'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari". Fan, ta'lim va amaliyatning integrasi. ilmiy-metodik jurnali, 2 (3), 107–114.
<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/59>
7. Xudayqulova, F. B. (2022). Ta'lim tizimini boshqarish. O'qituvchi ilmiy uslubiy metodik va badiiy jurnali, 3(9), 69-72.
8. Xodjamkulov, U. N., & Xudayqulova, F. B. (2021). Kelajak o'qituvchisi konsepsiyasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(3), 130-135.
9. Xudayqulova, F. B. (2020). Pedagogik mahoratning zamonaviy korinishi. Umumtalim fanlarini oqitishda innovatsion metodikalar, 4(1), 452-455.
10. Худойкулова, Ф. Х. (2019). Узлуксиз таълим тизимида укувчиларда лингвистик компетенцияни шакллантиришда назарий билимлар бериш муаммолари. Таълимдаги инновациялар ва ислохотлар контекстида замонавий кластер тизими, 1(6), 117-120.
11. Темиров, Б. Б., & Худойкулова, Ф. Б. (2021). Характеристики личности учителя связанные обменом идеями. Экономика и социум, (1-2 (80)), 496-499.
12. Xudayqulova, F. B. (2021). Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1668-1671.
13. Худайкулова, Ф. Б. (2022). ЛАБОРАТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 48-53.